

Uzbekistan Airways'dan qo'shimcha aviaqatnovlar

2023 7 Dekabr

Uzbekistan Airways 21, 24 va 28-dekabr, shuningdek, 4, 7 va 11-yanvar kunlari Toshkentdan Dubayga va ortga qaytuvchi qo'shimcha aviaqatnovlar joriy etilishini mamnuniyat bilan e'lon qiladi! HY 8333/8334 reyslari quyidagi jadvalga muvofiq amalga oshiriladi:

- Toshkentdan jo'nab ketish soat 9:00 da, Toshkent vaqti bilan;
- Dubayga yetib kelish soat 11:35 da, Dubay vaqti bilan;
- Dubaydan jo'nab ketish soat 13:05 da, Dubay vaqti bilan;
- Toshkentga yetib kelish soat 17:15 da, Toshkent vaqti bilan.

Aviachiptalarni www.uzairways.com saytida, ilovada, Uzbekistan Airways Sales filialida yoki aviakompaniya agentlaridan xarid qilishingiz mumkin!